



Xorazm viloyatida  
kichik tadbirkorlik

2023- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



# Xorazm viloyatida kichik tadbirkorlik

## Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


2023- yilning 1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **24 104** tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **818** taga kamaygan yoki **3,3 %** ga pasaygan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **14,5** birlikni tashkil qildi.

## Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


2023- yilning yanvar-sentabrida **5 096** ta yangi kichik korxonalar va mikrofirma (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **113,5 %** tashkil etdi.

**Yuridik shaxs** – o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

## 2019-2023- yillar 1- oktabr holatida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz), birlikda



## 2023- yilning 1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo'lgan sohalar bo'yicha soni va ulushi



# Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


## Hududlar bo'yicha 1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda

2022- y.		2023- y.
24 922	Xorazm viloyati	24 104
4 935	Urganch sh	4 434
2 142	Xiva sh.	1 973
1 566	Bog'ot	1 686
1 665	Gurlan	1 644
1 874	Qo'shko'pir	1 913
2 883	Urganch	2 663
1 410	Hazorasp	1 435
603	Tuproqqal'a	623
1 931	Xonqa	1 833
1 899	Xiva	1 682
1 393	Shovot	1 603
1 379	Yangiariq.	1 497
1 242	Yangibozor	1 118

2023- yil 1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni jami **24 104** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **5 096** tani tashkil etdi.

2023- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'pi Urganch shahrida **4 434** tani yoki jamiga nisbatan **18,4 %** ni tashkil etdi.

## 1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda




# Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda)\*


Urganch sh.	29,3
Xiva sh.	20,2
Yangibozor	17,3
Yangiariq	14,9
Urganch	14,5
Tuproqqal'a	14,5
Gurlan	13,4
Xiva	13,2
Qo'shko'pir	13,0
Shovot	12,2
Xonqa	12,0
Bog'ot	11,8
Hazorasp	8,9

Xorazm viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati 1- oktabr holatiga, birlikda



2023- yil 1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni har **1000** aholiga nisbatan **14,5** birlikni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2022- yilga nisbatan **1,7** birlikka ko'paygan.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har **1000** aholiga nisbati eng yuqori ko'rsatkichi Urganch shahrida **29,3** birlik, Xiva sh. **20,2** birlik, Yangibozor tumanida **17,3** birlik, Yangiariq tumanida **14,9** birlik va Urganch tumanida **14,5** birlikka yetdi.



\* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)




# Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Xorazm viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda

## Eng yuqori ko'rsatkich

Urganch shahri  
– 29,3 birlik



## O'rta ko'rsatkich

Gurlan tumani  
– 13,4 birlik



## Eng past ko'rsatkich

Hazorasp tumani  
– 8,9 birlik



Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori ko'rsatkich Urganch shahrida **29,3** birlik, Xiva shahrida **20,2** birlik, Yangibozor tumanida **17,3** birlik, Yangiariq tumanida **14,9** birlik, Urganch tumanida **14,5** birlik, Tuproqqal'a tumanida **14,5** birlik, Gurlan tumanida **13,4** birlik, Xiva tumanida **13,2** birlik, Qo'shko'pir tumanida **13,0** birlik kuzatildi.

**Tadbirkorlik faoliyati (kichik tadbirkorlik)** – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

2023- yil 1- oktabr holatiga har 1000 aholiga nisbatan to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlari ko'p tashkil etilgan shahar va tumanlar, birlikda

Urganch shahri

29,3

Yangibozor tumani

17,3

Urganch tumani

14,5

Xiva shahri

20,2

Yangiariq tumani

14,9

# Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


Yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda

2022- y.

2023- y.

591	Urganch sh.	642
271	Xiva sh.	309
416	Bog'ot	447
362	Gurlan	412
389	Qo'shkupir	474
465	Urganch	491
367	Hazorasp	380
126	Tupraqqal'a	133
297	Xonqa	300
305	Xiva	325
365	Shovot	526
310	Yangiariq	378
227	Yangibozor	279

2023- yilning yanvar-sentabrida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da




2023- yilning yanvar-sentabrida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Urganch shahri – **12,6 %**, Shovot tumani – **10,3 %**, Urganch tumani – **9,6 %**, Qo'shko'pir tumani – **9,3 %**, Bog'ot tumani – **8,8 %**, Gurlan tumani – **8,1 %**, Hazorasp tumani – **7,5 %** hissalariga to'g'ri keldi.

# Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2022-2023- yillarning yanvar-sentabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda



Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda




2023- yilning yanvar-sentabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida 2 158 ta, sanoatda 895 ta hamda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 555 ta yangidan tashkil etilgan.

Viloyatning tumanlari va shaharlari kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar Urganch shahrida 642 ta, Shovot tumanida 526 ta hamda Urganch tumanida 491 ta yangidan tashkil etilgan.


2022- y. 2023- y.

# Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlik



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2019-2023- yillarning yanvar-sentabr oylari davomida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlik



So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab - quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek, bu sohaga berayotgan katta e'tiborlari natijasida 2019-2023- yillarning yanvar-sentabr oylari davomida jami **20 648** ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p yangi subyektlar savdo sohasida – **7 458** (yoki **36,1 %**) ta, xizmatlar sohasida – **4 553** (yoki **22,1 %**) ta, sanoat sohasida – **4 281** (yoki **20,7 %**) ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **3 256** (yoki **15,8 %**) ta va qurilish sohasida – **1 100** (yoki **5,3 %**) tani tashkil etgan.




# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da




■ 2022- y. ■ 2023- y.




# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

## Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi (yanvar-sentabr oylarida), % da

2023- yilning yanvar-sentabrida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **71,7** % ni tashkil qilib, 2022- yilning tegishli davri bilan bir hil ko'rsatkichni tashkil qilib, o'sish va kamayish sur'atlari kuzatilmadi.




## 2023- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan tarmoqlari, % da




2023- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlikning eng yuqori ulushlari qishloq xo'jaligida **98,9** % ni, yo'lovchi aylanmasida **96,3** % ni, yo'lovchi tashishda **94,7** % ni, chakana savdoda **93,9** % ni, qurilishda **90,4** %, yuk tashishda **96,1** % ni tashkil etdi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-sentabr oylarida)


## Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati



## Kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati




## Kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati




# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-sentabr oylarida)

## Kichik tadbirkorlik subyektlarida qishloq xo'jaligi faoliyati

Hajmi, mlrd so'mda




Ulushi, % da




## Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi faoliyati

Hajmi, mlrd so'mda




Ulushi, % da




## Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatishdagi faoliyati

Hajmi, mlrd so'mda




Ulushi, % da





# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati


**2023- yilning yanvar-sentabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd so'm**



2023- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **2 647,8** milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Urganch shahri (**684,3** mlrd. so'm), Urganch (**453,3** mlrd. so'm), Xonqa (**236,2** mlrd. so'm), Tuproqqal'a (**212,8** mlrd. so'm) va Bog'ot (**186,9** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi. Yangibozor tumanida (**62,8** mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.


**Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmida eng yuqori ulushga ega hududlar, % da**




# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi dinamikasi, mlrd. so‘m

2023- yil yanvar-sentabrda sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 17,5 % ni tashkil etdi.



2023- yilning yanvar-sentabrda hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Urganch tumani (67,3 %), Xiva sh. (62,9 %), Xiva tumani (53,1 %), Bog'ot tumani (43,9 %), Xonqa tumani (41,8 %), Qo'shko'pir tumani (34,1 %), Gurlan tumani (33,3 %), Urganch shahri (26,9 %), Hazorasp tumani (26,1 %) va Yangiariq tumani (22,8 %) tashkil etdi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi hajmi va ulushi dinamikasi



## 2023- yilning yanvar-sentabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi va ulushi

Urganch sh.	665,6	79,8
Xiva sh.	267,3	100,0
Bog'ot	195,9	93,8
Gurlan	195,6	91,2
Qo'shko'pir	248,9	96,5
Urganch	450,3	86,9
Hazorasp	263,9	90,9
Tuproqqal'a	116,2	85,6
Xonqa	292,3	85,6
Xiva	407,0	99,3
Shovot	207,6	100,0
Yangiariq	179,6	100,0
Yangibozor	208,0	85,7

hajmi, mlrd. so'mda


ulushi, % da

2023- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **3 698,1** milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **90,4** % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **97,6** % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Urganch shahri (**665,6** mlrd. so'm), Urganch (**450,3** mlrd. so'm), Xiva (**407,0** mlrd. so'm), Xonqa (**292,3** mlrd. so'm), Xiva sh. (**267,3** mlrd. so'm), Hazorasp (**263,9** mlrd. so'm) hamda Qo'shko'pir (**248,9** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati


## 2018-2023- yillarning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlari investitsiya hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda




2023- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **3 052,9** milliard so'mni yoki jami investitsiya hajmining **45,3 %** ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan **81,1 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Urganch shahri (**631,4** mlrd. so'm), Urganch (**312,5** mlrd. so'm), Yangibozor (**307,5** mlrd. so'm), Qo'shko'pir (**291,0** mlrd. so'm), Xonqa (**269,0** mlrd. so'm), Hazorasp (**220,3** mlrd. so'm), Gurlan (**197,7** mlrd. so'm) hamda Bog'ot (**166,2** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

## 2018-2023- yillarning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, % da



## 2023- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmi va ulushi






# Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligi faoliyati

2023- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi **19 064,0** mlrd. so'mni yoki jami qishloq xo'jaligi mahsuloti hajmining **98,9** % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022- yilning tegishli davriga nisbatan **105,8** % ni tashkil qildi.

## 2018-2023- yillarning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari qishloq xo'jaligi hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi Urganch (2 329,8 mlrd. so'm), Qo'shko'pir (2 020,1 mlrd. so'm), Bog'ot (1 897,3 mlrd. so'm), Gurlan (1 871,4 mlrd. so'm), Xonqa (1 860,7 mlrd. so'm) hamda Hazorasp (1 842,9 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

## 2023- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi va ulushi

Urganch sh.	430,5	98,4
Xiva sh.	57,2	99,7
Bog'ot	1897,3	97,5
Gurlan	1871,4	99,9
Qo'shko'pir	2020,1	98,7
Urganch	2329,8	99,2
Hazorasp	1842,9	99,7
Tuproqqal'a	468,1	100,0
Xonqa	1860,7	98,6
Xiva	1501,6	99,5
Shovot	1530,8	99,1
Yangiariq	1589,1	96,7
Yangibozor	1664,5	99,7


hajmi, mlrd. so'mda   
 ulushi, % da

## 2018-2023- yillarning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligidagi ulushi dinamikasi, % da



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo faoliyati

## 2018-2023- yillarning yanvar-sentabrda oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmi va ulushi dinamikasi




2023- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **7 689,5** mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **93,9 %** ini tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilning tegishli davriga nisbatan **104,8 %** ni tashkil qildi.

## 2023- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi va ulushi

Urganch sh.	1891,1	85,3
Xiva sh.	373,9	95,4
Bog'ot	495,4	97,9
Gurlan	654,4	99,4
Qo'shko'pir	408,8	99,3
Urganch	954,2	97,3
Hazorasp	819,3	95,2
Tuproqqal'a	195,7	99,9
Xonqa	503,0	96,9
Xiva	254,3	92,1
Shovot	557,8	96,5
Yangiariq	357,0	99,5
Yangibozor	224,6	96,2

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Urganch shahri (**1 891,1** mlrd. so'm), Urganch (**954,2** mlrd. so'm), Hazorasp (**819,3** mlrd. so'm), Gurlan (**654,4** mlrd. so'm), Shovot (**557,8** mlrd. so'm), Xonqa (**503,0** mlrd. so'm) va Bog'ot (**495,4** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

## 2018 va 2023- yillarning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmining o'zgarishi, mlrd. so'm




hajmi, mlrd. so'mda

ulushi, % da

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2023- yilning yanvar-sentabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko'rsatish hajmi, mlrd. so'mda

Urganch sh.	1 310,2
Urganch	485,2
Xonqa	448,3
Hazorasp	401,5
Bog'ot	385,8
Gurlan	373,5
Qo'shko'pir	358,7
Xiva	358,3
Shovot	326,2
Xiva sh.	307,3
Yangiariq	292,7
Yangibozor	289,9
Tuproqqal'a	148,0


2023- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **5 485,5** mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **58,8 %** ini tashkil qildi va o'sish sur'ati 2022- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan **105,9 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Urganch shahri (**1 310,2** mlrd. so'm), Urganch (**485,2** mlrd. so'm), Xonqa (**448,3** mlrd. so'm), Hazorasp (**401,5** mlrd. so'm), Bog'ot (**385,8** mlrd. so'm), Gurlan (**373,5** mlrd. so'm) va Qo'shko'pir (**358,7** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.


# Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati (yanvar-sentabr oylarida)

## Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

Hajmi, mln. AQSH dollari




Ulushi, % da




## Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

Hajmi, mln. AQSH dollari




Ulushi, % da





# Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2018- y. 2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

2023- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining hajmi va ulushi

Urganch sh.	4752,4	20,9
Xiva sh.	9718,2	88,9
Bog'ot	11907,2	68,3
Gurlan	14335,4	77,5
Qo'shko'pir	5728,5	100,0
Urganch	15232,6	74,0
Hazorasp	20045,0	91,0
Tuproqqal'a	8248,7	66,9
Xonqa	20286,1	77,7
Xiva	10954,5	100,0
Shovot	1613,1	8,2
Yangiariq	7714,0	45,3
Yangibozor	14607,9	68,1

hajmi, ming AQSH dollar


ulushi, % da

2023- yilning yanvar-sentabrida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **146 030,7** ming AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining **64,5** % ini tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-sentabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Xiva va Qo'shko'pir tumanida – **100,0** %, Hazorasp tumanida – **91,0** %, Xiva sh.– **88,9** %, Xonqa tumanida – **77,7** %, Gurlan tumanida – **77,3** %, Urganch tumanida – **74,0** % va Bog'ot tumanida – **68,3** % ni tashkil qildi. Eng past ko'rsatkich Shovot tumanida – **8,2** % ni tashkil etdi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, % da




2023- yilning yanvar-sentabrda kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **163 152,3** ming AQSH dollarini yoki jami importning **37,5** % ini tashkil etdi.

**2023- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da**

2023- yilning yanvar-sentabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Hazorasp tumanida – **97,9** %, Yangibozor tumanida – **83,9** %, Urganch sh. – **82,8** %, Bog'ot tumanida – **65,9** %, Urganch tumanida – **57,9** %, Xonqa tumanida – **54,1** %, hamda Gurlan tumanida – **47,0** % ni tashkil etdi.


Hazorasp	97,9
Yangibozor	83,9
Urganch sh.	82,8
Bog'ot	65,9
Urganch	57,9
Xonqa	54,1
Gurlan	47,0
Xiva	39,3
Yangiariq	25,5
Xiva sh.	20,1
Shovot	11,5
Qo'shko'pir	9,8
Tuproqqal'a	3,7

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining transport faoliyati




**Yuk  
tashishda**

2023- yilning yanvar-sentabrida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **96,1 %** ni tashkil etdi. 2022- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **102,4 %** ni tashkil qildi.




**Yuk  
aylanmasida**

2023- yilning yanvar-sentabrida avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **83,0 %** ni tashkil etgan bo'lib, 2022- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **101,5 %** ni tashkil qildi.



**Yo'lovchi  
tashishda**

2023- yilning yanvar-sentabrida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **94,7 %** ni tashkil etib, 2022- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **102,4 %** ni tashkil qildi.




**Yo'lovchi  
aylanmasida**

2023- yilning yanvar-sentabrida avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **96,3 %** ni tashkil etib, 2022- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **101,9 %** ni tashkil qildi.

# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yil III chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, ming birlikda




2023- yil III chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnoma 1 195 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning 408 (34,1 %) tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. 755 (63,2 %) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan 32 (2,7 %) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda – 42,4 % (507 ta), xizmatlar sohasida – 29,1 % (348 ta), sanoatda – 13,5 % (161 ta), qurilishda – 6,4 % (76 ta), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 8,6 % (103 ta)ni tashkil etdi.

2023- yil III chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da



# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

## 2023- yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi

273	Urganch sh.	22,8
84	Xiva sh.	7,0
81	Bog'ot	6,8
77	Gurlan	6,4
77	Qo'shko'pir	6,4
142	Urganch	11,9
68	Hazorasp	5,7
40	Tuproqqal'a	3,3
105	Xonqa	8,8
49	Xiva	4,1
73	Shovot	6,1
75	Yangiariq	6,3
51	Yangibozor	4,4

**Birlik**


**Ulushi, foizda**

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Urganch shahri (**273** ta), Urganch (**142** ta), Xonqa tumanlari (**105** ta) va Xiva shahri (**84** ta) hissasiga to'g'ri keldi.



# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2018-2023- yillarning III choragi uchun umumiy iqtisodiy holatini baholanishi dinamikasi (joriy davrga nisbatan), birlik




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar soni 2018- yilning III choragida **116** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning III choragiga kelib esa **408** taga yetgan yoki 2018- yilning III choragiga nisbatan **292** taga oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalar soni 2018- yilda **363** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning yanvar-sentabrida **755** ta yoki **392** taga oshgan.

O'z nabatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalar ulushi esa 2018- yilda **19** tani tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilga kelib **32** tani tashkil etgan va bu ko'rsatkich 2018- yilga nisbatan **13** taga oshgan.

# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2018-2023- yillarning III choragida umumiy iqtisodiy holatini baholaganlar soni (o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan), birlik




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar soni 2018- yilning III choragida **323** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning III choragiga kelib esa **426** taga yetgan yoki 2018- yilga nisbatan **103** taga oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalar soni 2018- yilning III choragida **159** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning III choragida **586** ta yoki **427** taga oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalar soni esa 2018- yilning III choragida **15** tani tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning III choragiga kelib, bu ko'rsatkich **37** tani tashkil etib **22** taga oshgan.

# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2018-2023- yillarning III choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha), % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2018- yilning III choragida **23,2** % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilga kelib esa **34,2** % ga yetgan yoki 2018- yilga nisbatan **11,0** % birlik oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalar ulushi 2018- yilda **72,7** % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning III choragida **63,1** % yoki **9,6** % birlikka kamaygan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalar ulushi esa 2018- yilda **4,1** % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilga kelib, bu ko'rsatkich **2,7** % ga yetgan yoki **1,4** % ga kamaygan.

# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2018-2023- yillar III choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (o'tgan yillarning mos davriga nisbatan), % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yillarning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar ulushi 2018- yilning III choragida **65,9** % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilga kelib esa **40,6** % ga yetgan yoki 2018- yilning III choragida nisbatan **25,3** % birlik kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalar ulushi 2018- yilning III choragida **31,1** % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning yanvar-martida **55,9** % yoki **24,8** % birlikka oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalar ulushi esa 2018- yilning III choragida **3,0** % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning III choragiga kelib, bu ko'rsatkich **3,5** % yoki **0,5** % birlikka oshgan.

# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2023- yilning III choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **43,6** % ni, savdoda – **36,1** % ni, qurilishda – **35,5** % ni tashkil etdi.


Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi sanoatda – **67,7**% ni, xizmatlar sohasida – **65,6** % ni, qurilishda – **62,5** % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **5,0** % ni, sanoatda – **3,7** % ni, xizmatlar sohasida – **3,5** % ni tashkil etdi.



# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



2023- yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **48,9** % ni, qurilishda – **42,9** % ni, va savdoda – **40,4** % ni tashkil etdi.

Shuningdek, yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi xizmatlar sohasida – **57,9** % ni, savdoda – **57,1** % ni, sanoatda – **55,5** % ni tashkil etdi.

Yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi sanoatda – **10,1** % ni, qurilishda – **7,1** % xizmatlar sohasida – **3,5** % ni tashkil etdi.

# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning III choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da


	O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish*)
<b>Korxonaning umumiy aylanmasi</b>	40,0	53,1	6,9
<b>Band bo'lganlar soni</b>	27,0	69,1	3,9
<b>Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx</b>	34,3	62,5	3,2
<b>Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarzi mablag'lari</b>	27,8	66,3	5,9
<b>Raqobat muhiti</b>	38,3	59,9	1,8

	Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	kamayish (yomonlashish*)
<b>Korxonaning umumiy aylanmasi</b>	41,2	56,2	2,6
<b>Band bo'lganlar soni</b>	25,8	72,7	1,5
<b>Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx</b>	34,1	63,7	2,2
<b>Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarzi mablag'lari</b>	28,3	65,7	6,0
<b>Raqobat muhiti</b>	39,1	59,3	1,6


\* Faqat raqobat muhitiga tegishli

# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning III choragida biznesga ishonch muhitini baholash, o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar, % da



2023- yilning III choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli, % da



\* Faqat raqobat muhitiga tegishli